

PROBLEMS SYSTEMATIZATION OF CURRENT LEGISLATION WITH CERTIFICATION

Mirzayeva Lola

(TDYU, Toshkent)

Bugungi kunga kelib xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelishi bilan birga, attestatsiyadan o'tgan har bir xodimning ijobiy salohiyatidan yanada oqilona foydalanishga xizmat qilishi kerak. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni huquqiy tartibga solish muammosi, bizning fikrimizcha, mehnat qonunchiligida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, katta amaliy ahamiyatga ega, ammo noma'lum sabablarga ko'ra, bu muammo mehnat huquqi fanida eng kam o'rganilgan muammolardan biridir. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar aksariyati tarmoq yoki idoraviy xususiyatga ega bo'lib, mehnatkashlar manfaatiga daxldor fundamental masalalarni hal etishda yagona yondashuv mavjud emasligi bugungi kunda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratmog'imiz kerakligi talab qiladi. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar huquqning bir qancha sohalariga va birinchi navbatda, mehnat huquqiga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Attestatsiyaning tobora ortib borayotgan ahamiyatiga qaramay, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni huquqiy tartibga solish masalalari bo'yicha yetarlicha normalar mavjud emas. Birgina ish beruvchining xodim bilan mehnat shartnomasini uning egallab turgan lavozimiga yoki bajargan ishiga nomuvofiqligi, attestatsiya natijalari bilan tasdiqlangan malakasi yetarli emasligi sababli bekor qilish huquqi mavjudligi (100-modda 2-qismi, 2- bandi) ko'rsatilgan. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishning me'yoriy-huquqiy bazasi bilan bog'liq bunday holat mehnat qonunchiligi samaradorligini pasaytiradi, mehnat nizolarini keltirib chiqaradi, tashkilotlardagi ijtimoiy-psixologik muhitni yomonlashtiradi va xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni asoslashni taqozo etadi.

Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi bo'yicha o'rganib chiqish jarayonida xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha mavjud hujjatlarni quyidagicha tasnifladik:

Qonun asosida qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining buyrug'i bilan

Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan

Boshqa qo'mita tashkilot va markaz rahbarlari qaror va buyruqlari bilan qabul qilingan hujjatlar.

Yuqoridagi tasniflashga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, xodimni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida yagona me'yoriy hujjat mavjud emasligini guvohi bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi bo'yicha yigirmaga yaqin xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni tahlil qilish jarayonida, xodimni attestatsiyadan o'tkazish tartibi hamda attestatsiya komissiyasining tarkibi, attestatsiyadan o'tuvchi talabgordan talab qiladigan hujjatlar, xodimni attestatsiyadan o'tkazish shakli va baholash mezonlari turlicha tashkil etilganini aniqladik.

Bundan tashqari xodimni attestatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni chuqur tahlil qilib, hujjatlarni mazmuni jihatidan quyidagicha tasnifladik.

Xodimni attestatsiyadan o'tkazish tartibi va muddatlari bo'yicha tasniflanishi

Attestatsiya komissiyasi tarkibini shakllantirish bo'yicha tasniflash

Attestatsiyaga majburiy jalb qilinadigan, va attestatsiyadan ozod qilingan shaxslar doirasiga ko'ra tasniflanishi

Baholash mezonlari bo'yicha tasniflash

Xodimni attestatsiyadan o'tkazish tartibi va muddatlari bo'yicha hujjatlarni tasniflashda quyidagi umumiylikni aniqladik. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish muddatlari uch yil hamda besh yil qilib belgilangan bo'lib, yangi lavozimga tayinlangan shaxslar attestatsiyadan o'tkazishning eng kam muddati 6 oydan kam bo'lmasligi, hamda oliy ta'lim muassasasini bitirib birinchi ishga qabul qilinganlar 3 yildan so'ng attestatsiyadan o'tkazilishi belgilangan. Ammo attestatsiyadan o'tkazish muddati ko'rsatilmagan nizomlar

ham mavjud bo'lib, ushbu nizom bo'yicha xodimning faoliyat davriga qarab belgilanadi. Jumladan "Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspertlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi, "Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi", Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya va qayta attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida hamda "Sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" nizom bo'yicha xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish muddati ko'rsatilmagan faqat ularga beriladigan guvohnoma muddatining amal qilish asoslanib 3 yildan so'ng attestatsiyadan o'tkazilishi nazarda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, har bir nizomda attestatsiyadan majburiy o'tadigan xodimlar ro'yxati va ushbu attestatsiyadan ozod etilgan shaxslar doirasi belgilangan. Har bir korxona, tashkilot, muassasalarda xodimni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi hujjatda majburiy attestatsiyadan o'tkaziladigan xodimlar ro'yxati va ularni attestatsiyaga jalb qilish muddatlari turlicha bo'lib, faqatgina umumiy asoslarga ko'ra quyidagilar navbatdagi attestatsiyaga kiritilmasligi belgilangan.

egallagan lavozimida 1 yildan kam muddat ishlagan shaxslar;

majburiy ishlab berish muddati davrida yosh mutaxassislar;

homilador ayollar va 1 yoshgacha bolalari bo'lgan ayollar;

korxona va tashkilotlarning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan va

ozod etiladigan rahbar xodimlari kiritilmasligi ko'rsatilgan.

Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishning so'ngi bosqichi xolisona baholash hisoblanadi. Baholash jarayoni xodimni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarga asoslanib o'tkaziladi. Barcha soha xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi va baholash mezonlari shu bilan birga attestatsiyadan o'tkazish komissiyasini shakllantirish tartibida, o'tkazish muddatlarida farqlar borligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan pedagog kadrlar[2], tibbiyot xodimlari[3], hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni[4], qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiyasi[5], attestatsiyadan o'tkazishni tartibga soluvchi hujjatlarda xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish shakli va baholash mezonlari mavjud bo'lib, baholash ballik tizim asossida belgilangan. Ammo xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha qabul qilingan boshqa hujjatlarda attestatsiyadan o'tkazish shakli va baholash mezonlari ko'rsatilmagan. Shu bilan birga milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi televideniye muhandislik-texnika xodimlar, ¹ichki ishlar organi xodimlari[6], Milliy gvardiya xodimlari[7], Fuqarolarining harbiy xizmatchilarni[8], bojxona xodimlarini[9] soliq organi xodimlarini[10], attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi hujjatda attestatsiyaga jalb qilingan shaxslar doirasi va attestatsiyadan ozod qilingan hamda jalb etilmaydigan shaxslar doirasi ko'rsatib o'tilgan. Ammo yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari boshqa attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarda ushbu attestatsiyadan o'tuvchi shaxslar doirasi hamda ozod qilinganlar doirasi ko'rsatilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, xodimni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bo'yicha huquqiy hujjatlarni qayta tahlil qilishimiz lozim. Shuningdek, hozirgi mehnat bozori talablariga mos sifatli kadrlarni shakllantirish maqsadida xodimni attestatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni yanada takomillashtirish, mehnat kodeksiga xodimlarni attestatsiyada o'tkazish tartibi bo'yicha alohida paragraf qo'shish hamda attestatsiyadan o'tmaslik oqibatlarini qaytadan ko'rib chiqib, mehnat qonunchiligi talablariga muvofiqlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 03.08.2021-y., 03/21/705/0742-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi Qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021-y., 09/21/572/0891-son, 23.11.2021-y., 09/21/705/1082-son

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining "Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibi to'g'risida"gi buyrug'i // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 3-son, 32-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.11.2017-y., 10/17/2649-1/0267-son; 27.12.2017-y., 10/17/2649-2/0467-son, 13.11.2019-y., 10/19/2649-3/4019-son, 31.12.2020-y., 10/20/2649-4/1699-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son, 29.09.2021-y., 10/21/2649-5/0912-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.10.2021-y., 10/21/2649-6/0949-son
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Atom energiyasidan foydalanish sohasida faoliyat olib boradigan ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar va boshqa yuridik shaxslar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2022-y., 09/22/13/0008-son)
5. "Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o'tkazish to'g'risida" Nizom. //http://lex.uz//docs/-834725
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi televideniye muhandislik-texnika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 19-20-son, 235-modda)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori//
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o'tash tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"Qarori// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021-y., 07/21/5089/0372-son)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019-y., 07/19/4447/3747-son; 07.03.2020-y., 07/20/4630/0266-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; 24.03.2021-y., 07/21/5035/0228-son; 20.05.2021-y., 06/21/6230/0473-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.08.2021-y., 06/21/6274/0766-son, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)
10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2018-y., 03/18/502/2068-son; 23.05.2019-y., 03/19/540/3167-son, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 18.02.2022-y., 03/22/755/0147-son)*
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 09/19/320/2958-son; 23.11.2019-y., 09/19/943/4066-son; 17.04.2020-y., 09/20/234/0453-son; 31.10.2020-y., 06/20/6098/1432-son; 08.01.2021-y., 09/21/1/0002-son; 30.04.2021-y., 09/21/258/0400-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2021-y., 09/21/363/0549-son, 22.09.2021-y., 09/21/595/0900-son)